

SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI XIZMATLAR SOHASINI RAG‘BATLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Akbarov Akmalxon Akrom o‘g‘li

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

a.akmalxon.a@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola respublikasida soliq imtiyozlari orqali xizmatlar sohasini rag'batlantirishning amaliy ahamiyati, zamonaviy iqtisodiyotlarda xizmatlar sohasi — IT, turizm, moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi tarmoqlar — mamlakatlarning barqaror o'sishi, ish o'rinlari yaratilishi va innovatsiyalarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maqolada xizmatlar sohasini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirishning ahamiyati hamda shu bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq imtiyozi, soliq salohiyati, hududiy nomutanosiblik, soliq siyosati, byudjet daromadlari, soliq bazasi, soliq salohiyati indeksi.

ABSTRACT

This article discusses the practical importance of stimulating the service sector through tax incentives in the republic. In modern economies, the service sector - such sectors as IT, tourism, finance, healthcare, education - plays a crucial role in the sustainable growth of countries, job creation and the development of innovations. The article discusses the importance of stimulating the service sector through tax incentives and develops practical recommendations in this regard.

Keywords: tax incentive, tax capacity, territorial imbalance, tax policy, budget revenues, tax base, tax capacity index.

KIRISH

Soliq imtiyozlari investorlar, korxonalar va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratib, ularni xizmatlar sohasiga sarmoya kiritishga undaydi. Zamonaviy iqtisodiyotlarda xizmatlar sohasi — IT, turizm, moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi tarmoqlar — mamlakatlarning barqaror o'sishi, ish o'rinlari yaratilishi va innovatsiyalarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi[1]. Bu sohani rag'batlantirishning eng samarali usullaridan biri esa strategik soliq imtiyozlarini joriy etishdir. Quyida bu siyosatning asosiy ahamiyati va samalari misollar bilan ko'rsatilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda hududlararo soliq salohiyatini baholash metodologiyasini tahlil qilish va uni xizmatlar sohasini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy-nazariy tahlil, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi va Moliya vazirligining 2018-2023-yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

"Soliq salohiyati" tushunchasi ko'plab ilmiy ishlarda o'rganilgan. Jumladan, Rasulov (2020) soliq salohiyatini "ma'lum bir hududda mavjud bo'lgan, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqqa tortiladigan resurslar miqdori" deb ta'riflaydi [3]. Ahmedov (2021) esa soliq salohiyatini "hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi va soliq siyosatining samaradorligi natijasi" sifatida ko'rib chiqadi [4].

Xorijiy adabiyotlarda soliq salohiyatini baholash metodologiyasi keng muhokama qilinadi. Masalan, Bahl (2018) soliq salohiyatini baholashning uchta asosiy yondashuvini ajratib ko'rsatadi: makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan, reprezentativ soliq tizimiga asoslangan va regressiya tahlilidan foydalanish [5]. Martinez-Vazquez va Boex (2019) esa soliq salohiyatini baholashda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydilar [6].

Rossiyalik olimlar Ivanov va Petrova (2022) soliq salohiyatini baholashda mahalliy byudjetlarning daromad bazasiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish zarurligini ta'kidlashadi [7]. Ularning metodologiyasi soliq salohiyatini hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi daromadlari, tadbirkorlik faolligi va ishlab chiqarish hajmlarini hisobga olgan holda baholashga asoslangan.

O'zbekistonda soliq salohiyatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar nisbatan kam. Mavjud tadqiqotlar asosan soliq siyosatining umumiy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, hududiy jihatlar yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqotda O'zbekiston hududlarining soliq salohiyatini baholash uchun kompleks yondashuv taklif etilmoqda, bu yondashuv quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- hududiy yalpi mahsulot (HYaM);
- aholi jon boshiga daromad;
- sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmlari;
- tadbirkorlik sub'ektlari soni;
- investitsiyalar hajmi;
- soliq bazasining o'zgarishi dinamikasi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xizmatlar sohasini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirishning ahamiyati sohani rag'batlantirishning eng samarali usullaridan biri esa strategik soliq imtiyozlarini joriy etishdir. Soliq imtiyozlari investorlar, korxonalar va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratib, ularni xizmatlar sohasiga sarmoya kiritishga undaydi. Quyida bu siyosatning asosiy ahamiyati va samaralari misollar bilan ko'rsatilgan.

1. Iqtisodiy o'sishni kuchaytirish va tarmoqlarni diversifikatsiya qilish jarayoni xizmatlar sohasida, ko'plab mamlakatlarda YaIMning 60-70% ini tashkil etadi (masalan, AQSh, Buyuk Britaniya). Soliq imtiyozlari (korxonalar solig'ini pasaytirish, eksportga soliqlarni kamaytirish) orqali ushbu tarmoqqa sarmoya oqimini oshirish mumkin. Buning natijasida mamlakat iqtisodiyoti faqat xom ashyoga emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarga ham asoslangan holda diversifikatsiyalanadi[8].

Misol: Hindiston 2000-yillarda IT va dasturiy ta'minot eksportiga soliq imtiyozlari joriy qilib, yillik eksport daromadini 20 milliard dollardan 150 milliard dollargacha oshirdi. Bu esa mamlakatni global texnologiya markaziga aylantirdi.

2. Ish o'rinlari yaratilishi va kadrlar sifatini oshirish jarayoni xizmatlar sohasi mehnatni qo'llab-quvvatlovchi tarmoq hisoblanadi. Masalan, ta'lim yoki sog'liqni saqlash sohalariga soliq yengilliklari joriy qilinganda, yangi klinikalar, o'quv markazlari va texnoparklar paydo bo'ladi. Bu esa nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki malakali ishchi kuchini ham shakllantiradi.

Misol: Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahri turizm sohasiga soliq imtiyozlari (masalan, korporativ soliq 0%) berib, 10 yil ichida 1 millionga yaqin yangi ish o'rni yaratdi.

3. Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashishda soliq kreditlari, loyihalarni moliyalashtirish yoki startaplarga grantlar berish kabi imtiyozlar innovatsion g'oyalarni rag'batlantiradi. Xususan, IT va telekommunikatsiya sohalarida texnologik yangiliklarni qo'llash xizmatlar sifatini oshirishga olib keladi.

Misol: Estoniya IT-startaplar uchun soliq imtiyozlari va "e-rezidentlik" dasturini joriy qilib, Unicorn kompaniyalar sonini 10 taga yetkazdi (masalan, Skype, Bolt).

4. Mintaqaviy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini ayrim hududlarga mo'ljallab joriy qilish orqali rivojlanayotgan mintaqalarga investitsiyalarni yo'naltirish mumkin. Masalan, O'zbekistanda Qoraqalpog'iston yoki Farg'ona vodiysi kabi hududlarda turizm yoki qishloq xo'jaligi xizmatlariga imtiyozlar berilsa, mintaqaviy tengsizlik kamayadi.

Misol: Xitoyning Xanchjou shahrida maxsus iqtisodiy zonada soliq imtiyozlari tufayli Alibaba kabi global korporatsiyalar yuzaga keldi.

Misol: Singapur korporativ soliq stavkasini 17% ga pasaytirib, Janubiy-Sharqiy Osiyoning moliya markaziga aylandi[9].

Ehtiyotkorlik kerak imtiyozlarning ikki tomonlama chiqishida soliq imtiyozlari samaradorligi ularning aniq rejalashtirilishiga bog'liq. Agar imtiyozlar nazoratsiz qo'llansa, byudjet kamomadi, korrupsiya yoki spekulyatsiya kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun

- Imtiyozlar vaqtinchalik va maqsadli bo'lishi kerak (masalan, faqat yangi loyihalar uchun).

- Soliq tizimi shaffof va raqobatbardosh bo'lishi lozim.

XULOSA

O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq salohiyatini boshqarish masalasi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra, respublika hududlari o'rtasida soliq salohiyatida sezilarli nomutanosibliklar mavjud bo'lib, bu ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi, sanoat tarkibi va geografik joylashuviga bog'liq.

Soliq salohiyatidagi nomutanosibliklarni kamaytirish va uni samarali boshqarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Hududlarning soliq salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish va uni amaliyotga joriy etish.

2. Har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq siyosatini differensiallashtirish.

3. Mahalliy hokimiyat organlariga soliq siyosati bo'yicha ko'proq vakolatlar berish va ularni soliq salohiyatini oshirishga rag'batlantirish.

4. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va soddalashtirish orqali soliq tushumlarini oshirish.

5. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish va norasmiy sektorni qisqartirish.

6. Soliq madaniyatini oshirish va soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish.

7. Hududlararo byudjet transfertlari tizimini takomillashtirish va hududlarning soliq salohiyatini hisobga olgan holda moliyaviy yordam ko'rsatish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekiston hududlarining soliq salohiyatidan samarali foydalanish va hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni

kamaytirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida davlat byudjeti daromadlarining barqaror o'sishi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni, PF-5468-son, 29.06.2018
2. Ahmedov, B. (2021). Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish yo'llari. Moliya va bank ishi, 5(3), 78-86.
3. Rasulov, O. (2020). Soliq salohiyati: tushuncha va uning mohiyati. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2, 34-42.
4. Ahmedov, S. (2021). Hududiy soliq siyosati samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim, 3, 65-72.
5. Bahl, R. (2018). Fiscal Decentralization and Local Finance in Developing Countries. Edward Elgar Publishing.
6. Martinez-Vazquez, J., & Boex, J. (2019). Fiscal Capacity: An Overview of Concepts and Measurement Issues. International Studies Program Working Paper, 3, 1-22.
7. Ivanov, V., & Petrova, A. (2022). Metodologiya otsenki nalogovogo potentsiala regionov. Finansy, 4, 45-53.
8. Bird, R. M. (2017). Fiscal Decentralization and Decentralizing Tax Administration. Annals of Economics and Finance, 18(2), 451-470.
9. Ungboyeovich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(7), 16-23.